XALQ DEPUTATLARI SAYXUNOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-016-9-126-K/24 Sayxunobod tumani

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Sayxunobod tumanidagi ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori va Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan Sayxunobod tumanidan jami 11 ta ko‘chalarni nomlash bo‘yicha taklifidan 11 ta ko‘cha nomlari qonun talablariga nomuvofiq ekanligi o‘rganilib chiqib, 2024-yil 23-oktabrdagi 05-19-01-47014-sonli bayoni hamda 2024-yil 28-oktabrdagi 03/08-10307-sonli xatiga asosan 11 ta ko‘chaning nomi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlaming nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonun hujjatlari talablariga muvofiq ekanligi o‘rganilib chiqib ijobiy xulosa berildi. Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Sayxunobod tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi U.Abdunazarovning Sayxunobod tumanida ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 28-oktabrdagi 03/08-10307-sonli xulosa xatiga asosan Sayxunobod tumanida jami 11 ta ko‘chalarni nomlash boyicha taklifidan 11 ta ko‘chaning nomi O‘zbekiston

Respublikasining Geografik obyektlaming nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonun hujjatlari talablariga asosan 11 ta ko‘cha nomlari qonun talablariga muvofiq ko‘chalarning nomlari 1-ilovaga ko‘ra tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi U.Abdunazarov, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Baratov, hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.v.b J.Tavbayev, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Usmanov) hamda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlarida ko‘cha nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni 1 oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman statistka bo‘limi (A.Mamatqulov), O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiligining davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyat boshqarmasi Sayxunobod tuman bo‘limi (I.Ibodullayev), tuman Ichki ishlar bo‘limi (R.Ummatqulov)larga yangi va qayta nomlangan ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

5. Qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi U.Abdunazarov, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Baratov hamda tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.v.b J.Tavbayev mas’ul etib belgilansin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Esirgapov) hamda “Yangi hayot ijtimoiy-siyosiy huquqiy” gazetasi tahririyati(E.Saidov)ga:

- ushbu qaror yuzasidan aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashining -ijtimoiy soha,yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi T.Djavlonov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

MULLAJANOV
KOMILJON XUSAN
O‘G‘LI

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-016-9-126-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sayxunobod tumani hududidagi koʻchalarning nomlanishi va qayta nomlanishi boʻyicha

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bogʻlanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaning ekspert komissiyasi tomonidan tahlili	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Koʻcha	Doʻstlik mahallasi	Dahbet	Fidoyilar	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Tor koʻcha	Doʻstlik mahallasi	Dahbed-1	Fidoyilar-1	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Tor koʻcha	Doʻstlik mahallasi	Dahbed-2	Fidoyilar-2	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Berk koʻcha	Doʻstlik mahallasi	Gʻayratli	Fidoyilar	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Berk koʻcha	Doʻstlik mahallasi	Nomsiz	Temuriylar	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

6	Tor koʻcha	Paxtakon mahallasi	Nomsiz	Oʻzbegim	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7	Tor koʻcha	Olgʻabos mahallasi	Nomsiz	Yashnobod	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8	Tor koʻcha	Olgʻabos mahallasi	Nomsiz	Yangiobod	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9	Berk koʻcha	Ittifoq mahallasi	Nomsiz	Tursunmat Gʻulomov	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10	Tor koʻcha	Sintob mahallasi	Nomsiz	Oqterak	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11	Tor koʻcha	Sintob mahallasi	Nomsiz	Iste’dod	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.